




Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
Yuqori Chirchiq tumani statistika bo'limi to'g'risida
NIZOM

I bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani statistika bo'limining (*keyingi o'rinlarda – Bo'lim deb yuritiladi*) maqomi, asosiy vazifa va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Bo'lim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 24- fevraldagi "Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqishga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-27-son farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-75-son qarori bilan tashkil etilgan va O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining (*keyingi o'rinlarda – Milliy statistika qo'mitasi deb yuritiladi*) yagona tizimiga kiruvchi hududiy davlat statistika organi hisoblanadi va o'z faoliyatida Toshkent viloyati statistika boshqarmasiga (*keyingi o'rinlarda – Boshqarma deb yuritiladi*) bo'ysunadi.

Bo'lim mahalliy davlat hokimiyati organidan mustaqildir va bevosita Toshkent viloyati statistika boshqarmasiga bo'ysunadi.

Bo'lim boshqarmaning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

3. Bo'lim raqamli texnologiyalardan foydalangan holda mahalliy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, yuridik shaxslar va fuqarolarning rasmiy statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojini qondiruvchi, yaxlit ilg'or, shaffof va oshkoralikka asoslangan iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy, ekologik hamda boshqa xususiyatga ega dolzarb statistika ma'lumotlari tizimining faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirilgan rasmiy statistika sohasidagi yagona siyosatni amalga oshirishda ishtirok etadi.

4. Bo'lim o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonuni va boshqa qonunlarga, Oliy Majlisining normativ qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, Milliy statistika qo'mitasining buyruqlari, qarorlari, topshiriqlari va ko'rsatmalariga, "Toshkent viloyati statistika boshqarmasi to'g'risida"gi nizomga, boshqarmaning buyruqlari va ko'rsatmalariga, mazkur nizomga, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

5. Bo'lim o'z faoliyatini mahalliy davlat hokimiyati organi, xo'jalik boshqaruvi organlari va yuridik shaxslar bilan o'zaro hamkorlikda, shu jumladan, idoralararo elektron hamkorlik qilishdan foydalangan holda amalga oshiradi.

6. Bo'lim o'z faoliyatini har yili Respublika statistika kengashi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika dasturiga asosan Milliy statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika ishlarini tayyorlash dasturiga muvofiq tashkil qiladi.

7. Bo'limning qonuniy faoliyatiga davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va ularning mansabdor shaxslarining har qanday aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

8. Bo'lim Toshkent viloyati statistika boshqarmasining yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tarkibiy bo'linmasi hisoblanib, o'z nomi yozilgan blankka ega.

9. Bo'limning joylashgan manzili: Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tumani, Ma'rifat MFY, Mustaqillik ko'chasi 78- uy.

II bob. Bo'limning vazifalari va funksiyalari

10. Quyidagilar Bo'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

hudud darajasida rasmiy statistika sohasida davlat siyosatni amalga oshirish, rasmiy statistikani rivojlantirish masalalari bo'yicha faoliyatni milliy statistika tizimi qonunchiligi doirasida muvofiqlashtirish, statistika uslubiyotlari va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo'lgan statistika kuzatuvlari shakllarini amaliyotga joriy qilishda ishtirok etish;

foydalanuvchilar ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy, ekologik hamda boshqa xususiyatga ega dolzarb statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash jarayonlarini tashkil etishda ishtirok etish;

rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari asosida sifatli va ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligini oshirishga qaratilgan ta'sirchan mexanizmlarni amaliyotda qo'llash;

statistika ma'lumotlarini tayyorlash jarayonlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish;

hududiy darajada ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va ularning yuqori darajada amalga oshirilishini ta'minlash;

bo'limga yuklangan vazifalar o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun xodimlarning mas'uliyatlarini oshirish.

11. Bo'lim o'z zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) hudud darajasida rasmiy statistika sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, rasmiy statistikani rivojlantirish masalalari bo'yicha faoliyatni milliy statistika tizimi qonunchiligi doirasida muvofiqlashtirish, statistika uslubiyotlari va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo'lgan statistika kuzatuvlari shakllarini amaliyotga joriy qilishda ishtirok etish sohasida:

hudud darajada milliy statistika tizimiga statistika faoliyatini tashkil etishning xalqaro darajada tavsiya etilgan ilg'or uslubiyotlari va tavsiyalarini joriy etish yuzasidan zarur choralarni amalga oshiradi;

Statistika dasturiga kiritish uchun takliflar tayyorlaydi;

rasmiy statistikani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari bilan birgalikda hududiy darajada o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradi va statistika dasturlari doirasida ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi;

bo'limning tahliliy salohiyatini mustahkamlash bo'yicha zarur choralarni ko'radi;

milliy statistika tizimi faoliyatini tashkil etish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadi, rasmiy statistika sohasi masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda taklif va mulohazalarni belgilangan tartibda boshqarmaga kiritadi;

rasmiy statistika tamoyillariga rioya etilishini va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo'lgan statistik uslubiyotlarning yagonaligini ta'minlashda ishtirok etadi;

xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (*GSIM, GSBPM, GAMSO modellari asosida*) hamda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini joriy etishni ta'minlaydi;

foydalanuvchilarning statistika ma'lumotlariga bo'lgan talablaridan kelib chiqqan holda statistika kuzatuvlari shakllarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi va boshqarmaga kiritadi;

statistika kuzatuvlari shakllarining joriy etilishini tashkil etadi, jumladan hisobot taqdim etuvchi subyektlarni tasdiqlangan statistika hisoboti shakllari to'g'risida xabardor qiladi hamda ularni elektron shaklda to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirishlar beradi;

vakolati doirasidagi masalalar bo'yicha tavsiyalar beradi va tasdiqlangandan so'ng amaliyotga joriy etadi;

statistika kuzatuvlarini yagona statistika metodologiyasiga qat'iy amal qilgan holda o'tkazilishini ta'minlaydi.

b) foydalanuvchilar ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy, ekologik hamda boshqa xususiyatga ega dolzarb statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash jarayonlarini tashkil etish sohasida:

Statistika ishlarini tayyorlash dasturining bajarilishini ta'minlaydi;

Statistika ishlarini tayyorlash dasturiga muvofiq o'z hududi darajasida iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy, ekologik hamda boshqa xususiyatga ega dolzarb statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash, e'lon qilish jarayonlarini amalga oshiradi;

hudud bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlarining bajarilishi yuzasidan Milliy statistika qo'mitasi tomonidan belgilangan statistika kuzatuvlarini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini tashkil etadi;

hududlarni rivojlantirish dasturlari amalga oshirilishining borishini o'z vaqtida va ishochli statistik hisobini ta'minlaydi;

statistika hisobotlarini elektron ko'rinishida, zarur hollarda qog'oz ko'rinishida yig'ishni, uy xo'jaliklarini statistik kuzatishni, ro'yxatdan o'tkazishlarni, bir martalik hisobga olishlarni, so'rovlarni va boshqa kuzatuvlarni Milliy statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shakllar va metodologiyaga qat'iy amal qilgan holda tashkil etadi va ta'minlaydi;

hudud bo'yicha eng muhim iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar va hodisalarning dastlabki statistik tahlilini olib boradi;

statistika, hisobot ko'rsatkichlarining va o'tkazilgan tanlanma kuzatuvlar natijalarining tezkorligi, ishonchliligi va xolisligini, statistik axborotlarning qulayligi, ochiq-oydinligi va oshkoraligini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlaydi;

iqlim o'zgarishi va "yashil iqtisodiyot" bo'yicha shakllanadigan ko'rsatkichlarni xalqaro standart hamda me'yorlarga muvofiqlashtirib borishda ishtirok etadi;

respondentlarga elektron hujjat shaklidagi statistika hisobotlarini to'ldirish, taqdim etish va kuzatuvlar shakllarini tuzish va taqdim etish uchun maxsus dasturiy ta'minotdan bepul foydalanish imkonini beradi;

respondentlarga ishonchli statistika hisobotlarini taqdim etishda har tomonlama ko'maklashadi, statistik ma'lumotlarni taqdim etish sohasida huquqiy madaniyatni oshirish va huquqbuzarliklarning oldini olishning ta'sirchan mexanizmlarini amalga oshiradi, statistik nazoratni amalga oshirishning zamonaviy usullarini qo'llanishini ta'minlaydi;

rasmiy statistika sohasida huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va statistik ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchliligini ta'minlash maqsadida respondentlar bilan samarali hamkorlik qilishni tashkil etadi, ular uchun maksimal qulay shart-sharoitlarni yaratadi;

statistika hisobotlarini yig'ish, statistika kuzatuvlarini o'tkazish, rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirish hamda ularni tarqatish va e'lon qilish jarayonlarida davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organi, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslarining har qanday aralashuvini istisno qilish chora-tadbirlarini ko'radi;

foydalanuvchilarga boshqarma va Milliy statistika qo'mitasining axborot resurslari hamda axborot bazalaridan foydalanishga doir tushuntirishlar beradi;

olingan statistika ma'lumotlarining maxfiyligini, birlamchi hisobot va individual ma'lumotlaridan yuridik shaxslarning faoliyatini, boshqa xususiyatlarini yoki miqdor ko'rsatkichlarini rasmiy tasdiqlash maqsadida foydalanishga yo'l qo'ymaslikni, davlat sirlariga ega bo'lgan statistika ma'lumotlarining himoya qilinishini ta'minlaydi;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq, bo'lim faoliyati jarayonida yuzaga kelgan arxiv hujjatlarini komplektlash, saqlash, hisobga olish va ulardan foydalanish ishlarini amalga oshiradi;

o'z vakolati doirasida bo'lim faoliyati jarayonida olingan xizmat, bank, tijorat sirlari va boshqa maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotlarni saqlash va himoyalashning tegishli tartibini ta'minlaydi;

foydalanuvchilarning keng ommasi uchun hudud bo'yicha statistika ma'lumotlarning maksimal darajada ochiq-oydinligi va oshkoraligini ta'minlaydi;

hududning rivojlanishini tizimli tahlil qilish bo'yicha boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organi bilan yaqindan hamkorlik qiladi;

mahalliy ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini tavsiflovchi kompleks tahliliy ma'lumotlar, press-revizlar va maqolalar tayyorlaydi, tarqatilayotgan statistik ma'lumotlarga tahliliy va ma'lumotnoma materiallar majburiy tartibda ilova qilinishini ta'minlaydi, ushbu materiallarni mahalliy ommaviy axborot vositalarida berib borilishini tashkil etadi;

milliy iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari hamda hududning rivojlanishini, islohotlarni chiqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnologik qayta jihozlash, xom-ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, hududni kompleks rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturlarning amalga oshirilishini, aholi turmush darajasidagi sifat o'zgarishlarini yanada to'liq aks ettiradigan statistika ma'lumotlarni tezkor va sifatli tayyorlashda ishtirok etadi;

statistika kuzatuvlari va rasmiy statistika ma'lumotlari masalalari bo'yicha axborot-tushuntirish ishlarini olib boradi;

shartnoma asosida, qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda statistik, tahliliy, axborot, noshirlik xizmatlarini va Statistika dasturidagidan tashqari boshqa xizmatlarni ko'rsatadi hamda qo'shimcha ravishda ishlov berilgan statistika ma'lumotlarini, bosma nashrlarni va boshqa materiallarni rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning so'roviga ko'ra pulli asosda taqdim etish ishlarini amalga oshiradi.

d) rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari asosida sifatli va ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligini oshirishga qaratilgan ta'sirchan mexanizmlarni amaliyotda qo'llash sohasida:

rasmiy statistika ma'lumotlarining rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga rioya etgan holda tayyorlanishi va tarqatilishini tashkil etishda ishtirok etadi;

sifatli va ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligini ta'minlash bo'yicha boshqarmaga o'z takliflarini beradi;

rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari va ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar tomonidan o'z vakolatlari doirasida amalga oshiriladigan statistika kuzatuvlari tizimini maqbullashtirish yo'li bilan xolisona, sifatli va talab yuqori bo'lgan hisobot ma'lumotlari tayyorlanishini, tanlanma statistika kuzatuvlari sonini va natijalarining ishonchliligini bosqichma-bosqich oshirilishini hududiy darajada muvofiqlashtiradi;

barcha foydalanuvchilarga rasmiy statistika ma'lumotlaridan keng foydalanish uchun teng imkoniyatlarni yaratadi;

aholi, tadbirkorlik subyektlari, ilmiy tadqiqot institutlari, xalqaro ekspertlar va davlat idoralarini raqamli texnologiyalardan keng foydalangan holda ishonchli statistik ma'lumotlar bilan ta'minlaydi;

mahalliy va xorijiy axborot makonlarini rasmiy ko'rsatkichlar asosida tayyorlangan materiallar va ular bo'yicha tushuntirishlar bilan ta'minlaydi.

e) statistika ma'lumotlarini tayyorlash jarayonlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish sohasida:

statistika ma'lumotlari bilan ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish darajasini oshirish, statistika organlarida foydalaniladigan axborot tizimlarini doimiy takomillashtirish, statistika ma'lumotlarining yagona bankini shakllantirish, ko'rsatilayotgan interaktiv xizmatlar tarkibini kengaytirish va sufatni yaxshilashda ishtirok etadi;

axborot xavfsizligini ta'minlash, axborot almashishning himoyalangan elektron ko'rinishiga bosqichma-bosqich o'tish, xavflarga qarshi tizimning samarali ishlashini ta'minlash uchun normativ-huquqiy va tashkiliy-texnik bazani

takomillashtirish bo'yicha Milliy statistika qo'mitasi va boshqarma tomonidan qabul qilingan chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

“mahalladan – respublikagacha” tamoyili asosida statistik ko'rsatkichlarni shakllantirish tizimini yaratishda hudud darajasida tegishli ishlarni amalga oshirish orqali ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlaydi hamda tahliliy ma'lumotlarni e'lon qilish ishlarini tashkil etadi.

f) hududiy darajada ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va ularning yuqori darajada amalga oshirilishini ta'minlash sohasida:

ro'yxatga olishni o'tkazish to'g'risida aholini xabardor qilishga doir ishlarni hududiy darajada muvofiqlashtiradi;

ro'yxatga olishni o'tkazish jarayonlarida ishtirok etadi.

g) hududiy darajada kadrlar salohiyatini hamda yuklangan vazifalar o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun xodimlarning mas'uliyatlarini oshirish sohasida:

xodimlarning samarali mehnat qilishlari, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy muhofaza qilish uchun munosib shart-sharoitlarni yaratish choralari ko'radi;

statistika tizimida hudud bo'yicha kadrlarning malakasini oshirilishini va qayta tayyorlanishini tizimli asosda ta'minlashda ishtirok etadi;

bo'lim xodimlarida yuksak kasbiy odob-axloqni, korrupsiyaga qarshi turish madaniyatini va unga toqat qilib bo'lmaydigan munosabatni shakllantirish bo'yicha ta'sirchan choralarni ko'radi;

bo'lim faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ilg'or statistik usullar va vositalar innovatsion ishlanmalarni joriy etish bo'yicha takliflarni tsyyorlab, boshqarmaga kiritiladi;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida bo'lim ishini takomillashtirish bo'yicha amaliy choralarni ko'radi;

jismoniy va yuridik shaxslarning yozma va og'zaki murojaatlarini o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqilishida ishtirok etish, qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartib va muddatlarda murojaat egalariga javoblar yetkazilishini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslari tomonidan rasmiy statistika sohasidagi qonunchilik hujjatlari buzilishini oldini olishga qaratilgan ogohlantiruvchi va profilaktika xususiyatiga ega choralarni, shuningdek, aniqlangan qonunbuzarliklar oqibatlarini bartaraf etish choralari amalga oshiradi.

Bo'lim qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham bajarishi mumkin.

III bob. Bo'limning huquqlari va javobgarligi

12. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar, funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

hududdagi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan, boshqa yuridik shaxslardan (*zarur hollarda – ularning vakolatxonalari va filiallaridan*) statistika hisobotini belgilangan tartibda olish hamda undan statistika maqsadlarida foydalanish;

hududdagi davlat hokimiyati organidan, davlat tashkilotlaridan statistika ishlarini olib borish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni (*ularni ishlab chiqishning istalgan bosqichida*), shuningdek, ularga ilova qilinadigan tushuntirishlarni so'rash va olish;

hududdagi yuridik shaxslarni va yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlardan, shuningdek, yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarning registrari va axborot bazalarini shakllantiruvchi va yurituvchi davlat organlari hamda ularning idoraviy mansub tashkilotlaridan Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va faollashtirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish;

hududdagi yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatining statistika kuzatuvlarini Milliy statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shakllar va metodologiya bo'yicha olib borish va olingan ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;

statistika kuzatuvlarining metodologiyasi va tashkil etilishi, shuningdek, rasmiy statistika axborotlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha axborot-tushuntirish ishlarini olib borish;

rasmiy statistika ma'lumotlaridan noto'g'ri foydalanish va talqin qilish holatlarini ko'rib chiqish, ular bo'yicha tushuntirishlar berish;

yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuzilgan shartnoma asosida statistik, konsalting, tahliliy, axborot, noshirlik va statistika dasturidagidan tashqari boshqa xizmatlarni ko'rsatish;

olinayotgan statistika ma'lumotlarining to'liqligi, ishonchliligi va xolisonaligini tahlil qilish;

statistika ma'lumotlarida nomuvofiqlar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish to'g'risida ko'rsatmalar berish va boshqarma bilan kelishilgan holda hudud bo'yicha yig'ma statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;

statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzayotgan mansabdor shaxslarga nisbatan qonunchilik hujjatlariga muvofiq ma'muriy jazo choralari ko'rish;

Bo'lim qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

13. Bo'lim xodimlari ularga yuklangan vazifalar va funksiyalar samarali bajarilishi uchun javob beradi.

Bo'lim xodimlari harakatlari ustidan shikoyat qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

14. Bo'lim xodimlari rasmiy sohasidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzganlik, tarqatilishi cheklangan statistika ma'lumotlari, statistik axborotlar va (yoki) ma'lumotlar bazasini yo'qotganlik, sotganlik, berganlik va boshqa noqonuniy oshkor etganlik uchun, shuningdek, statistika ma'lumotlarini yashirganlik va buzib ko'rsatganlik uchun, yoxud ko'rsatib o'tilgan huquqqa zid qilmishlarga ko'maklashganlik uchun qonunga muvofiq javob beradi.

IV bob. Bo'lim faoliyatini tashkil etish

15. Bo'lim boshlig'i Milliy statistika qo'mitasi bilan kelishilgan holda Toshkent viloyati statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

16. Bo'lim boshlig'i:

bo'lim faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi va bo'limga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

davlat organlarida va boshqa tashkilotlarda bo'limni ifodalaydi;

bo'limda huquqiy madaniyatni oshirishga va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha profilaktika ishlarini olib boradi va boshqa choralarni ko'radi;

yuklatilgan vazifalarga, shuningdek, Milliy statistika qo'mitasi va boshqarma rahbariyatining topshiriqlariga muvofiq bo'limning faoliyatini tashkil etadi;

Milliy statistika qo'mitasi hay'ati qarorlari, Milliy statistika qo'mitasi qaror va buyruqlari, boshqarma buyruqlari, ko'rsatmalari hamda topshiriqlari bilan yuklangan vazifa va funksiyalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlaydi;

Davlat siri va maxfiy axborotni tashkil qiladigan ma'lumotlar bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablari asosida ishlarni tashkil qiladi;

bo'lim xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

bo'lim xodimlarining majburiyatlari va javobgarligi darajasini belgilaydi;

o'z vakolatlari doirasida bo'lim xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi;

bo'lim xodimlarini boshqarma tomonidan mukofotlash, rag'batlantirish, yuqori malakasi uchun ustamalar belgilash va ularga nisbatan intizomiy jazo choralarni qo'llash bo'yicha boshqarmaga takliflar kiritadi;

bo'lim xodimlarini boshqarma bilan kelishgan holda qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini tizimli asosda ta'minlaydi;

bo'limga yuklangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash uchun amaldagi qonun hujjatlari doirasida zarur choralar ko'radi.

Bo'lim boshlig'i qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

17. Bo'lim xodimlari Boshqarma boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

V bob. Bo'limning moliyalashtirilishi va moddiy-texnika ta'minoti

18. Bo'limning mol-mulkini boshqarma tomonidan foydalanish uchun ajratilgan asosiy vositalar, shuningdek, qiymati boshqarma balansida aks ettiriladigan boshqa boyliklar tashkil etadi.

19. Bo'lim xodimlariga quyidagi miqdorda ko'p yillik ishlaganlik uchun har oylik ustama to'lanadi (*rag'batlantirish koeffitsientini inobatga olgan holda lavozim maoshiga nisbatan koeffitsientlarda*):

- 1 yildan 3 yilgacha – 0,3;
- 3 yildan 5 yilgacha – 0,6;
- 5 yildan 10 yilgacha – 0,8;
- 10 yildan 15 yilgacha – 1,0;
- 15 yildan 20 yilgacha – 1,2;
- 20 yildan yuqori – 1,5.

20. Ko'p yillik xizmatlari uchun mukofot pulini olish huquqini beradigan ish staji Milliy statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan tartibga muvofiq hisoblanadi.

21. Bo'limning moddiy-texnika ta'minoti Statistika dasturiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Bo'limning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish, xodimlarning kasb mahoratini, o'z lavozim vazifalarini sifatli bajarganligini, ijodiy faolligini va tashabbuskorligini rag'batlantirish boshqarma tomonidan amalga oshiriladi.

VI bob. Yakunlovchi qoida

22. Bo'limni qayta tashkil etish, qo'shib yuborish va tugatish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.